


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK ADABIYOTI”

fanining o‘quv dasturi (sillabusi)

Bilim sohasi:	200 000 – San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta‘lim yo‘nalishi:	60230200– Tajima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)

Toshkent-2022

Fan/modul kodi 302 O'A 24	Fan/modul turi fanlov	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023				Jami yuklama (soat)		
			O'quv mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)			
Semestr	Har bir semestrda modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Hafsalik dars soatlari				amaliy laboratoriya	Jami: ma'ruza seminar	
			2	2					
3	"O'zbek adabiyoti"	2	2	2	0	24	0	30	60
4	"O'zbek adabiyoti"	2	2	2	0	26	0	30	60
	Jami:	4	4	4	0	50	0	60	120

1. FANNING MAZMUNI

O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni. Ushbu fan o'zbek adabiyoti tarixi: janrlar tarkibi. "Avesto" tarixiy-adabiy yodgorligi va uning ilmiy-ma'rifiy hamda adabiy-badiiy qimmatini, islomga qadar yaratilgan adabiyot, eng qadimgi adabiy yodgorliklar, Oltin o'rda davri o'zbek adabiyoti, Islom tasavvuf falsafasi va adabiyot, temuriylar davri adabiyoti, XVII- XIX va XX-XXI asrlar o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining dolzarb muammolari, adabiy-madaniy muhit va uning yetakchi namoyandalari haqida umumiy ma'lumotlarni qamrab oladi.

Oliy ta'lim tizimida ma'naviy barkamol avlodni yetishtirish, ularni ajdodlar yaratgan adabiy-madaniy meros va zamondosh adiblar, shoirlar, dramaturglar yaratgan adabiy-badiiy asarlarga muhabbat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda talabalar kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda ushbu fan muhim ahamiyatga ega. "O'zbek adabiyoti" fanini to'liq o'zlashtirish talabalar adabiy-estetik didini yuksaltirish barobarida ularni ilmiy tadqiqot olib borish malakasini shakllantirish uchun ham zamin hozirlaydi. Mazkur ishchi dasturni tuzishda Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoevning adabiyot va san'atni rivojlantirishga oid qarorlari, ma'ruza va nutqlari, xususan 2017- yil 18- apreldagi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida "Adiblar xiyoboni"ni barpo etish to'g'risidagi Qarori va 2020- yilning 20- may kuni mazkur xiyobonga tashriflari paytida bildirgan fikrlari metodologik asos vazifasini o'tadi.

Fanning maqsad va vazifalari. Fanni o'qitishdan maqsad - o'zbek adabiyoti tarixi va zamonaviy adabiyot bilan bog'liq boy adabiy va ilmiy meros bilan talabalarni tanishtirish, o'sib kelayotgan avlodni sog'lom e'tiqod va yuksak axloq sohibi bo'lgan ajdodlarimizga hurmat, zamondoshlarimizga ehtirom ruhida tarbiyalash, ular qalamiga mansub ma'naviy xazinalarimizni qadrlashga o'rgatish orqali ularni yuksak ma'naviyatli inson va keng ma'rifat sohibi etib tarbiyalashdir. O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti va o'zbek milliy ma'naviyatining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini anglash orqali yoshlarda kuchli tafakkur tarzini shakllantirish, o'zbek

adabiyoti tarixi va istiqbol davridagi taraqqiyoti haqida xar tomonlama keng va teran bilim hosil qilishi, ma'naviy dunyosi mukammal bo'lishiga ko'maklashish ushbu o'quv fanining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun "O'zbek adabiyoti" fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, fanga doir muammolarga tizimli uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz) (kunduzgi) bo'lim talabalari jahon adabiyoti bilan bir qatorda, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini ham chuqur o'rganish orqali madaniyatlararo muloqotning ikki tomonlama dialogik shakliga amal qilish, adabiyotlarning bir-birini boyitishi hamda o'ziga xos an'analariga ega ekanligini bilib olish orqali nazariy bilimlarini yanada boyitadilar. Tarjimonlik amaliyotlarida ingliz-o'zbek va o'zbek-ingliz adabiyotlari eng sara namunalarni o'g'irish orqali ikki xil til, madaniyat va adabiyotlarning xalqlarimiz ma'naviy olamini yanada boyitishiga samarali ulush qo'shish malakasini mustahkamlaydilar.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talabalar:

Talaba: - mumtoz va zamonaviy adabiyot tushunchasi, adabiyot tarixini davrlashtirish me'zonlari, eng qadimgi adabiy yodgorliklardan tortib, islomgacha va islom ta'sirida rivojlangan adabiyot, tasavvuf falsafasi va komil inson muammosining poetik talqinlari, didaktik adabiyot, o'zbek jadid va sho'ro adabiyoti, mustaqillik davri adabiyotining erkin, plyuralistik tafakkur negizidagi rivoji, barcha davr adabiyotlarining yetakchi namoyandalari hayoti va faoliyati, ularning millat va jahon madaniyatini rivojiga qo'shgan beqiyos hissalarini, o'zbek davlatchiligi va ma'naviyati tarixida tutgan o'rni haqida bilimga ega bo'lishi;

- talaba o'zbek adiblari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi, ular ijodini o'rganish, to'g'ri tahlil va talqin qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- mumtoz va zamonaviy adabiyot bilan bog'liq tushuncha va tamoyillar, poetika asoslari: balog'at ilmi, ilmlar uchligi, mumtoz va zamonaviy asarlarning mazmun-mohiyati, janrlar tarkibi, ramziy-majoziy istilohlarni sharhlash, badiiy nasr uslubi, bayon tarzi, obrazlari mohiyatini anglash, badiiy asarlar tili, ilmiy-filologik, tarixiy, irfoniylar, diniy-falsafiy asarlarning o'ziga xos jihatlari, ma'no qatlamlari, ushbu asarlarning o'zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko'rsatgan ta'siri bilan bog'liq masalalarni bilish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Fanni o'qitish natijalari va shakllanadigan kasbiy kompetensiyalar. O'zbek adabiyoti tarixining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, unga yondashuvlar, adabiyot tarixini o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillarini bilish; milliy uyg'onish adabiyotida qadimchilar va jadid adabiyoti, XX asr o'zbek adabiyoti hamda mustaqillik davri adabiyoti vakillarining muhtarak hamda farqli xususiyatlari anglashiga ko'maklashuvchi bilim, ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishadi.

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Ta'lim texnologiyalari va metodlari uzluksiz ta'limning oliy ta'lim bosqichida ta'limning adabiyot fani sohasida:

- a) *talabaniq bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha*: klassik ma'ruza, darsliklar, texnik vositalar yordamida o'qitish, kichik guruhlariga ajratish pedagogik texnologiyalardan;
- b) *ta'lim oluvchiga yondashuv turi bo'yicha*: didaktik, pedagogik, ijtimoiy, insonparvarlik va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalardan;
- v) *qo'llaniladigan asosiy metodi bo'yicha*: tushuntirish, ko'rgazmali, muammoli, izlanishli, ijodiy, dialogli va axborotli (kompyuterli) ta'lim metodlaridan foydalaniladi.

4. TALABALAR KREDITLARINI OLISH TARTIBI

"Talabalar kreditlarni olish tartibi" kredit-modul tizimida fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish (baholash) va kreditlarni olishga oid talablar o'rnatilgan tartibda belgilanadi;

TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalar bilimni baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: O'tilgan mavzular asosida og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat: Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Izoh: *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalar bilimni baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI 3-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul)			
Islomga qadar yaratilgan adabiyot. Yeng qadimgi adabiy yodgorliklar			
1	O'zbek adabiyoti tarixi: janrlar tarkibi. "Avesto" tarixiy-adabiy yodgorligi va uning ilmiy-ma'rifiy hamda adabiy-badiiy qimmatini	O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish usullari; Qadimgi mif va afsonalar, qo'shiq va lirik she'rlar; qahramonlik eposlari; "Avesto" – Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yozma yodgorligi.	2
2	Eng qadimgi adabiy yodgorliklar	O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari: "Kul-Tegin" va "Tunyuyuq" bitiktoshlarining mazmuni, ulardagi qahramonlik, xalq mustaqilligi, yurt daxlsizligi uchun kurash motivlari va bu g'oyaning bugungi kun bilan hamohanglik jihati; "Devoni lug'otit-turk" va "Qutadg'u bilig" asarlari turkiy yozma adabiyotning ilk adabiy namunasi sifatida.	2
2-bob (modul)			
Oltin O'rda davri o'zbek adabiyoti			
3	Sayfi Saroyi va Nosiriddan Rabg'uziy hayoti va ijodi.	Sayfi Saroyining "Gullistoni bit-turkiy", Nosiriddan Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarlari	1
4	Qutb Xorazmiy, Kamol Xo'jandiy, Sayyid Ahmad va Yusuf Amiriy hayoti va ijodlari haqida ma'lumot.	Qutbning "Xusrav va Shirin"; Xorazmiyning «Muhabbatnoma»; Xo'jandiyning "Latofatnoma",	1

Yusuf Amiriyning "Dahnoma" asarlari haqida umumiy ma'lumot.	Jami: 6 s.
---	------------

4-SEMESTR

3-bob (modul)		4-bob (modul)		5-bob (modul)	
Islom tasavvuf falsafasi va adabiyot. Temuriylar davri adabiyoti		XVII- XIX asrlar o'zbek adabiyoti		XX- XXI asrlar o'zbek adabiyoti	
5	Islom tasavvuf falsafasi va adabiyot. O'zbek mumtoz adabiyotida "komil inson" timsoli.	6	Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi	8	O'zbek jadid adabiyoti. Sho'ro davri o'zbek adabiyoti. Muataqillik davri o'zbek adabiyoti
	Islom tasavvuf falsafasining paydo bo'lishi, shakllanishi hamda adabiyot bilan bog'liqligi. Atoyi va Lutfiy adabiy merosida komil inson timsoli.		"Xamsa"navislik adabiy an'anasi va "abror odam" tushunchasi. Alisher Navoiy – buyuk turkiy xamsanavis Bobur lirikasi. "Boburnoma" – tarixiy-memuar asar sifatida		O'zbek jadid adabiyoti va uning A.Qodiriy, Cho'pon, Fitrat kabi yirik vakillari hayoti va ijodi haqida ma'lumot; Sho'ro davri o'zbek adabiyotining yutuq va nuqsonlari. Oybek, G'G'ulom, H.Olimjon, Zulfiya, A.Qahhor, M.Shayxzoda, O'. Hoshimov, T.Murod hayoti va ijodi haqida ma'lumot

		4.s.
--	--	------

2. AMALIY MASHG'ULOTLAR
3-SEMESTR AMALIY MASHG'ULOTLAR

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Osiqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul)			
Islomga qadar yaratilgan adabiyot. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar			
1	Qadimgi mif va afsonalar	Mif, afsona, folklor, adabiyot, mifologik obraz, Hubbi obrazi	2
2	Qadimgi qo'shiq va lirik she'rlar Qahramonlik yeposlari	qo'shiq, lirik she'rlar. qahramonlik yeposlari	2
3	"Avesto" – Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yozma yodgorligi.	Yaxshilik va ezgulik xudosi Ahuramazda. Yomonlik va yovuzlik timsoli Anxramaynu, Govamard (ho'kiz-odam - Qayumars), ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu amal	2
4	"Kul-Tegin", bitiktoshlari ning mazmuni, ulardagi qahramonlik, xalq mustaqilligi, yurt daxsizligi uchun kurash motivlari va bu g'oyaning bugungi kun bilan hamohanglik jihati.	"Tunyuquq" badiiy-tarixiy asar, etnografizm, To'nyuquq, Eltarish xoqon, Bilga xoqon, Kulteegin, ikkinchi turk xoqonligi	2
5	"Devoni lug'otit-turk" va "Qutadg'u bilig" asarlari turkiy yozma adabiyotning ilk adabiy namunasi sifatida.	8 mingdan ortiq turkiy so'zlar, qomusiy asar, dunyo xaritasi, sharqshunoslik	4
2-bob (modul)			
Oltin o'rtad davri o'zbek adabiyoti			
6	Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy" asarini o'qish va o'rganish	Birinchi bob-sultonlar haqidagi hikoyatlar. Ikkinchi bob-faqirlar axloqi haqidagi hikoyatlar. Uchinchi bob-qanoatning foydasi haqidagi hikoyatlar. To'rtinchi bob-sukutning foydasi haqidagi hikoyatlar. Beshinchi bob-ishqdagi yigritlik sifati haqidagi hikoyatlar. Oltinchi bob-qariikdagi zaiflik sifatlari haqida. Yettinchi bob-tarbiyaning ta'siri haqida.Sakkizinchi bob-sulbat odoblari haqida.	2

7	Nosiriddan Rabbg'uziyning "Qisasi Rabbg'uziy" asarini o'qish va o'rganish	Odam va olamning yaratilishi, payg'ambarlar qissasi, pand va nasihatlar, o'yat va hadislar	2
8	Qutbning "Xusrav va Shirin" asarini o'qish va o'rganish	erkin tarjima, doston, 91 bob, syujet, "Shahzoda Timibekxon madhi", "Malika marhuma" "Xonmalik madhi", o'zbek xalq maqollari va ta'birlari	2
9	Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asarini o'qish va o'rganish	Noma janri, oshiq, ma'shuqa, shoir, lirik qahramon, maktub, g'azal, fard, masnaviy, ruboiy,	2
10	Xo'jandiyning "Latofatnoma" asarini o'qish va o'rganish	Nazira, doston, 10 ta noma, sevgi, visol, hijron	2
11	Yusuf Amiriyning "Dahnoma" asarini o'qish va o'rganish	noma janri, Navoiy va Samarqandiy tazkiralarda Amiriy, 10 ta noma, Xorazmiy "Muhabbatnoma"si. Ishq, oshiq, ma'shuqa	2
Jami:			24

4-SEMESTR AMALIY MASHG'ULOTLAR

3-bob (modul)			
Islom tasavvuf falsafasi va adabiyot. Temuriylar davri adabiyoti			
1	Atoyi va Lutfiy adabiy merosida komil inson timsoli	devon, orifona g'azal, muhabbat, may, soqiy, maqol, matal. Lutfiy qalamiga mansub mavjud she'rlarning umumiy miqdori 2774 bayt yoki 5548 misradan ortiq. Ularning katta qismi (2086 bayti) g'azal janrida yozilgan. Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma, Qondur jigirim, xoh inon xoh inonma	2
2	Alisher Navoiy – buyuk turkiy xamsanavis	Beshlik, oshiq, ishq, raqib, abror odam tushunchalari, Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Bahrom, Dilorom, Iskandar kabi obrazlar	4
	Bobur lirikasi. "Boburnoma" – tarixiy-memuar asar sifatida	Lirika, tarixiy memuar asar, hayot haqiqati, tarixiy xolislik	2
4-bob (modul)			
XVII- XIX asrlar o'zbek adabiyoti			

3	Qo'qon adabiy muhiti	Amiriy, Mashrab, Muqimiy, Furqat g'azallari; Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari	2
4	Xorazm adabiy muhiti	Feruz, Munis, Ogahiy, Avaz g'azallari, Bayoniy tarixlari "Shajarai Xorazmshohiy" da rus bosqini voqealarining haqqoniy tasvirlari	2
5	Toshkent va Buxoroda adabiy hayot.	Kamiy, Shaykat, Tavallo, Ahmad Donish hayoti va ijodi	2
5-bob (modul)			
XX- XXI asrlar o'zbek adabiyoti			
6	O'zbek jadid adabiyoti	A.Qodiriy, Cho'ipon, Fitrat kabi yirik vakillari hayoti va ijodi	4
	Sho'ro davri o'zbek adabiyotining yutuq va nuqsonlari.	Oybek, G'G'ulom, H.Olimjon, Zulfiya, A.Qahhor, M.Shayxzoda, O' Hoshimov, T.Murod hayoti va ijodi	4
7	Muataqillik davri o'zbek adabiyoti	A. Oripov, E. Vohidov, O. Matjon, H. Xudoyberdieva hayoti va ijodi	2
8	Muataqillik davri o'zbek adabiyoti	X.To'xtaboev, T. Adashboev, A. Obidjon hayoti va ijodi	2
Jami:			26

3. MUSTAQIL TA'LIM ISHLARI

Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar. Mustaqil ta'lim talabani dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarda mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlarni o'qib o'zlashtirishi asosida og'zaki so'raha (qabul qilish) shaklida amalga oshiriladi.

3-SEMESTR MUSTAQIL TA'LIM ISHLARI

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul)			
1	Islomga qadar yaratilgan adabiyot. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar	Islomning yaratilishi haqidagi mif, mifologik timsol, adiiy mahorat	2
2	To'fon haqidagi mif	mif, mifologik timsol, badiiy mahorat	2
3	Turkiy mifologiyada kultlar	mifologiya, kult, badiiy mahorat.	2
4	Jamshid haqidagi afsona	Afsona va haqiqat	2

5	Kul tigin bitiktoshida xoqonlar obrazi	obraz, motiv, bitiktosh, g'oyaviy-estetik niyat	2
6	“Xuastaanif”ning tuzilishi va g'oyaviy mazmuni.	kompozitsiya, shakl, mazmun	2
7	“Oltun yorug” ning yaratilishida turkiy qavmlarning ishtiroki. Asardagi afsona va o'g'itlar	adabiy sintez, janr, imkoniyat	2
8	“Oltun yorug” ning yaratilishida turkiy qavmlarning ishtiroki. Asardagi afsona va o'g'itlar	adabiy sintez, janr, imkoniyat	2
2-bob (modul)			
Oltin o'rdada madaniy hayot va adabiy muhitning o'ziga xosligi			
9	Oltin o'rdada madaniy hayot va adabiy muhitning o'ziga xosligi	Adabiy muhit, ijtimoiy shart-sharoit	2
10	“Qisasi Rabg'uziy” asarida qissa. hikoyat, rivoyat va boshqa janrlar	adabiy sintez, janr, imkoniyat	2
11	Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahj ul-farodis” asarida xalifalar bilan bog'liq hikoyatlar	adabiy sintez, janr, imkoniyat	2
12	Saroyining “Suxayl va Guldursun” dostoni	syujet, g'oyaviy mazmun, shakl va uslub	2
13	Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning “Jome' ut-tavorix” asarida O'g'uz xon haqidagi rivoyatlar	rivoyat, obraz, tarixiy haqiqat va badiiy to'qima	2
14	Qutbning “Xusrav va Shirin” dostonida obraz va motivlar.	doston, obraz, motiv	2
15	«Muhabbatnoma»da poetik timsollar va ishq talqinlari	doston, obraz, motiv, badiiy talqin, timsol	2
4-SEMESTR MUSTAQIL TA'LIM ISHLARI			
3-bob (modul)			
Islom tasavvuf falsafasi va adabiyot. Temuriylar davri adabiyoti			
1	Atoyi va Lutfiy g'azallaridan parchalar yod olish	G'azal, mumtoz adabiyot, janr, bahr, radif	2
2	Alisher Navoiy g'azallaridan parchalar yod olish	G'azal, mumtoz adabiyot, janr, bahr, radif	2
3	Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini o'qish	mazmun, shakl, syujet, leytmotiv, qahramon	2
4	Bobur ruboiy va tuyuqlaridan yod olish	Ruboiy, tuyuq, mumtoz adabiyot, janr, taronay ruboiy	2
4-bob (modul)			
XVII- XIX asrlar o'zbek adabiyoti			

5	Mashrab g'azallaridan parchalar yod olish	G'azal, mumtoz adabiyot, janr, bahr, radif	2
6	Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarini o'qish	masal, qoliplash, allegoriya, qissadan hissa chiqarish	2
7	Ogahiy g'azallaridan parchalar yod olish	G'azal, mumtoz adabiyot, janr, bahr, radif	2
8	Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy” asarini o'qish	tarixiy nasr, hayot haqiqati, rus bosqini, ozodlik kurashchilari	2
9	Kamiy, Shavkat, Tavallo g'azallaridan parchalar yod olish	G'azal, mumtoz adabiyot, janr, bahr, radif	2
5-bob (modul)			
XX- XXI asrlar o'zbek adabiyoti			
10	A.Qodiriy hajviy asarlarini o'qish	hajviya, Kalvak maxzum, Toshpo'lat tajang, Shirvon xola, obraz, xarakter	2
11	Oybekning “Navoiy” romanini o'qish	roman, janr, adabiy qahramin, Navoiy, Husayn Boyqaro, Majiddin, Badiuzzamon, Mo'min mirzo obrazlari, poyetik mahorat	2
12	A. Oripovning “O'zbekiston” she'ridan parcha yod olish	deklomatsiya, ifoda, nutq. notiq, faxriya	2
13	E.Vohidovning “Ruhlar isyon” dostonini o'qish	Nazrul Islom, mustamlakachilik, tarix va zamon mushtarakligi, makon va zamon	2
14	O'.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasini o'qish	Obraz, Ona timsoli, qahramon, muallif “Men”i	2
15	A.Obidjonning “Ajnasi yo'llar” qissasini o'qish	xotira-qissa, hayot haqiqati, epik bayonchi, ifoda samimiyati	2
Jami:			30

6. FANNING KURS ISHI MAZMUNI

7. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar:

1. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi (XVII-XIX I yarmi). O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. – T.: 2006. – 272 bet (electron holatda)
2. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). Olquv qo'llanma. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 556 bet (electron holatda)
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 528 b (electron holatda)

4. Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. XVI-XIX asr I yarmi. "Noshir" nashriyoti, - T.: 2019 - 432 b.
5. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T.: O'qituvchi 1999. - 554 bet. (electron holatda)

Oo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. Yerkim va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. - T.: O'zbekiston. 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmoni (Xalq so'zi, 2017 yil, 8-fevral)
3. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni martd va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T.: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari" to'g'risida (Xalq so'zi, 2017 yil, 21-aprel)
6. Adbiyot yensiklopediyasi/ Tuzuvchi: H. Boltaboev.-T.: Mumtoz so'z, 2015
7. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma.-T.,2006.
8. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badniyat. -T.: Akademiya, 2000
9. Dolimov U. Milliy uyg'onish pedagogikasi. T.: Noshir, 2012.
10. Dolimov U. Turkistonda Jadid maktablari. - T.: Universitet, 2006.
11. Yoqubov I. Milliy uyg'onish davri o'zbek nasri. T. Fan va texnologiya, 2011.
12. Yoqubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. T. "Nuratishon business" 2021.
13. Jabborov N. Ma'rifat nadi. -T.: Ma'naviyat, 2010
14. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma'naviyat T.: Ma'naviyat, 2015
15. Jo'raqulov U.Hududsiz.jilva.-T., 2006.
16. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. - T., 2015.
17. Yo'ldoshev Q. Yopiq so'z.- T.: Yangi asr avlodi. 2006
18. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. -T.: Sharq, 2008
19. Karimov H. Istiqol davri adabiyoti. -T., 2010
20. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. Adabiy- ilmiy maqolalar to'plami. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi.2016.
21. Mumtoz adabiyot namunalari. 1-jild. Nashrga tayyorlovchilar: N.Rahmonov. O'zMU, 2002
22. Mirvaliev S. O'zbek adiblari. - Yozuvchi, 2000
23. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. T.; Ma'naviyat, 2000
24. Normatov U. Naafosat gurgunglari. - T.: Muharri,2010
25. Rahmonov N. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. Monografiya. -T.: "Mumtoz so'z", 2016
26. Sirojiddinov Sh. O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. -T.: Yangi asr avlodi, 2011.
27. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. (1-2-jildlar) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: Rahmonov N.-T.: Fan, 2015
28. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 1-kitob. T. "Fan", 1976 y.
29. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 1-4 jildlar. - T.: Fan:1977
30. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotiga materiallar. 1-son (hammuallif). Toshkent: Universitet, 2004.
31. Qosimov B. Milliy uyg'onish: ma'rifat, jasorat, fidoyilik.-T.: Ma'naviyat, 2002
32. Hojrahmedov A. Mumtoz adabiyoti malohati. -T.: Sharq. 1990

Internet saytlari

1. <http://www.kutubxona.uz>

2. <http://www.literature.uz>
3. <http://www.zivonet.uz>
4. <http://www.alishernavoiy.uz>

8. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik" kafedrasi tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022 yil "25" "03" dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

"Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik" kafedrasi mudiri, f.f.d., prof.

U.Jo'raqulov
(imzo)

Tuzuvchi:

I.A. Yakubov (imzo)

"Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik" kafedrasi professori, f.f.d.

Taqrizchilar:

Qahramonov Q. (imzo)

TDPU "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi professori, f.f.d.;

Matyoqubova T. (imzo)

ToshDO'TAU "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasi dotsenti, f.f.n.